

## **SOTSIOLINGVISTIKA FANINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA UNING VAZIFALARI**

Adiba Isoqova Sirojiddinovna

TerDU lingvistika (o'zbek tili) 2-bosqich magistranti

### **Annotatsiya:**

Sotsiolingvistikaning taraqqiyot bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari talqin qilinadi. Xorijiy sotsiologlarning maqsadi va vazifasi haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek til va til siyosatiga oid tushunchalar atroflicha izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** sotsiolingvistika, til , jamiyat, lisoniy shaxs, Yevropa davlatlari, mustaqil til, standart tillar, taraqqiyot bosqichlari.

### **Stages of development of the science of sociolinguistics and its tasks**

**Abstract:** The specific features of the development stages of sociolinguistics are interpreted. Information is provided about the purpose and mission of foreign sociologists. Also, concepts related to language and language policy are explained in detail.

**Keywords:** sociolinguistics, language, society, linguistic personality, European countries, independent language, standart languages, stages of development.

Har qanday jamiyat hayoti va taraqqiyotida tilning o'rni katta ahamiyatga ega ekanligi, har qanday jamiyatning ilmiy asoslangan til siyosatiga ehtiyoji barchaga ma'lum. Shu bilan bir qatorda tilning yashashi va rivojlanishi shu jamiyat bilan uzviy bog'liq. Chunki til o'zining muloqot, bilish, ifoda vazifalarini bajarishi uchun uning o'z hududi, bu hududda yashovchi jamiyat, jamiyatning iqtisodiy bazasi bo'lishi kerak, zero, bu hudud, sodir bo'layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ma'naviy-mafkuraviy siljishlar tilga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.<sup>1</sup> Bundan tashqari fan-texnika taraqqiyoti, globallashuv jarayoni ham tilga ta'sir qiladi. Sotsiolingvistikaning ustuvor vazifalaridan biri sifatida yuqorida ko'rsatilgan omillar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Jahonning ko'pgina mamlakatlarida,

<sup>1</sup> Tilshunoslik va tabiiy fanlar.Yusupova Orzibonu. O'quv qo'llanma



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

ayniqsa, Osiyo va Afrika mamlakatlarida shu vaqtga qadar til muammosi o'z yechimini topgan emas. Hatto Hindistonday yirik mamlakatda hali-hanuzgacha ingliz tili o'z hukmron mavqeini saqlab qolmoqda. Modomiki, mustaqillikka erishganiga bir asrdan oshgan bo'lsa-da!

Sotsiolingvistika fanining barcha taraqqiyot bosqichlari ushbu fanning obyekti insonning jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqeа-hodisalarни bevosa kuzatishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu kuzatishlar o'z ko'lamiga ko'ra juda keng bo'lib, ijtimoiy hayotda kechayotgan hech bir jarayon inson nazaridan chetda qolmaydi hamda inson bilan bog'liq jarayonda vujudga keladi. Binobarin har bir sohada insonning lisoniy shaxs darajasiga yetkazuvchi vosita tilning o'ziga xos vazifaviy ko'rinishi bevosa jamiyatda namoyon bo'ladi. Ushbu o'ziga xoslik aynan o'zaro aloqada, axborot almashish jarayonida o'z ifodasini topadi.

Sotsiolingvistika til va tafakkurda, axborot almashinish jarayonida tilning vazifaviy ko'rinishlari kabi masalalari bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, sotsiolingvistika faqat til hodisalarining tabiatini anglash bilan chegaralanib qolmasdan, u jamiyatimizdagi madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy-siyosiy masalalarni hal etish bilan ham uzviy ravishda bog'liq. Shunday ekan, sotsiolingvistikating rivoji va taraqqiyoti ham barcha jabhalarga bog'liq holda rivojlanib boradi.

Ijtimoiy tilshunoslik o'tgan asrning 60-yillarida jahon tilshunosligening yetakchi tarmoqlaridan biriga aylangan bo'lsa, 80-yillarga kelib ilg'or sohalardan biri sifatida fan sahnasiга dadil chiqdi.<sup>2</sup> Yillar o'tib sotsiologlar tomonidan jamiyatning ijtimoiy hodisalari qatorida tilni o'rganishga ehtiyoj bo'lganligi bois ushbu fan vujudga keldi va o'z taraqqiyot davrini boshladi. Sotsiolingvistikating taraqqiyotini dastlab Yevropa va Amerika davlatlarida so'ngra boshqa mamlakatlarda jadal sur'atlar bilan taraqqiy etib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, AQSH, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Fransiya kabi davlatlarda tilshunoslari, xususan sotsiologlar ushbu fan taraqqiyoti bosqichlari va uning vazifalarini atroflicha o'rganishgan va fanga nazariyalar asosida tadbiq etishgan. Birgina AQSHda ushbu soha rivoji boshida "muloqot salohiyati", "muloqot vaziyati", "lisoniy jamoa" kabi terminlar izoh berila boshlandi.<sup>3</sup> Yuqorida nomi keltirilgan davlatlarda ushbu fan XX asr o'rtalarida o'rganilgan bo'lsa, O'zbekistonda bu davr shu asrning 70-80-yillarini o'z ichiga oladi.

<sup>2</sup> Xorijiy sotsiolingvistika. H.Dadaboyev, Sh.Ulmonova. O'quv qo'llanma.

<sup>3</sup> Xorijiy sotsiolingvistika. H.Dadaboyev, Sh.Ulmonova. O'quv qo'llanma.



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri til siyosatidagi o'zgarishlar, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, vazifasi tilning taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Ushbu hodisalarning barchasi sotsiolingvistik tadqiqotlar mohiyatini yanada oshiradi, ularga yangicha yondashish, yangi tahlil uslublarini qo'llashni talab qiladi. Ma'lumotlar to'plash jarayonidan ko'rindiki, o'zbek tilshunosligidagi bu yangi soha endi o'zining taraqqiyot bosqichini boshlash arafasida turibdi. Ushbu amaliy jihatdan o'rganilishi lozim bo'lgan yangi yo'nalishda hali ko'pgina ma'lumotlar o'zbek tilida o'z yechimini topmagan.

Davlat tili, adabiy til, standart tillar borasida yakuniy xulosa va nazariyalar ham ishlanmagan.

Sotsiolingvistikaning asosiy muammosi "til + jamiyat" o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdan iborat. Shunday ekan til va jamiyat munosabatlari o'rtasidagi bu bog'liqlik ularning taraqqiyotining uzviy ko'rinishidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Dadaboyev, Sh.Usmonova . Xorijiy sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma, T.:2013
2. Wikipedia. Onlayn ensiklopediya.
3. Yusupova Orzibonu. Tilshunoslik va tabiiy fanlar.O'quv qo'llanma.Samarqand:2021